Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318274

materiallar to'plami

ELEKTRON DARSLIKLARNI YARATISH HUQUQIY ASOSLARI VA DASTURIY VOSITALARI TAHLILI

Ikromov Xusan, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi
Toshxo'jayeva Xayitxon, "Axborot tizimlari va texnologiyalari" yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron darsliklarni yaratishda foydalaniladigan huquqiy baza va dasturiy ta'minot tahlil qilinadi. Tadqiqot elektron o'quv materiallarini yaratish va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini baholash, shuningdek, elektron darsliklarni ishlab chiqish va tarqatish uchun foydalaniladigan vositalar va platformalarni tahlil qilishdir. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari va o'quv materiallarini yaratuvchilar uchun muhim bo'lgan elektron ta'lim sohasidagi mavjud huquqiy maqom va texnik imkoniyatlarni tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: tahlil, qonunchilik bazasi, dasturiy ta'minot, elektron darsliklar, ta'lim, qonunchilik, ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim.

Davlatimiz va jamiyatimizning bugungi kuni ayniqsa, kelajagi uchun g'oyat muhim bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini o'z oldimizga maqsad qilib qo'yar ekanmiz, avvalambor, biz yashayotgan XXI – asr intelektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan, aynan shu qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadigan asr degan hayotiy haqiqat kelib chiqadi.

Zamon rivojlanishi natijasida kundalik hayotimizga turli xil innovatsion texnologiyalar hamda gadjetlar kirib keldi va ular yildan-yilga mukammallashib bormoqda. Bular inson hayoti mazmuniga aylanib qolganligi, ularsiz bir kunini ham tasavvur qila olmaydiganlarning mavjudligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Albatta, ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish o'qitish sifatini oshirishga, qiziqarli, rang-barang qilishiga allaqachon amin bo'lganmiz va hozirda har bir o'qituvchi ulardan foydalanadi. Shu o'rinda, elektron darsliklarga to'xtalib, ularning yutuq va kamchiliklarini ko'rib chiqsak. Elektron darsliklar maxsus qurilma yoki dasturiy ta'minot bo'lib, ta'lim jarayonida an'anaviy qog'oz kitob o'rnini bosadi. Bugungi kunga kelib elektron kitob tushunchasiga turlicha ta'riflar mavjud. Ayrim manbalarda ular an'anaviy qog'oz kitoblarning elektron ko'rinishi deyilsa, boshqalarda matnlardan tashqari, o'quvchilarga taqdim qilish uchun ta'limiy multimediya materiallariga hamda markaziy manba tomonidan yangilanib turuvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv blokga ega elekrton qurilmalardagi murakkab dasturlar yig'indisi deya ta'riflanadi. Elektron darsliklarning so'nggi vakillari ustida qayta ishlash jarayonlari olib borilayotganligi sababli zamonaviy elektron darsliklar asosan tasvirli matnlardan iborat. Deyarli barcha o'qituvchilar ularning o'quvchilar tomonidan oson qo'llanilishi, texnik qurilma yordamida fanga bo'lgan qiziqish va motivatsiyaning ortgani, darsda va uyda maroq bilan foydalanishlari haqida ta'kidlaydi.

Elektron darsliklar yaratish uchun bir nechta dasturiy vositalar mavjud, ammo CoursLab dasturi bu maqsad uchun juda qulay va samarali dasturlardan biridir. Bu dastur, ta'limiy maqsadlar uchun loyihalar yaratishni osonlashtiradi va o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qatnashishini osonlashtiradi. CourseLab - bu Internet tizimida, masofaviy ta'lim tizimlarida, kompakt disk yoki boshqa har qanday saqlash qurilmalarida ishlatish uchun mo'ljallangan interaktiv ta'lim

Published: 10.11.2023

Cite this article: Ikromov Xusan, Toshxo'jayeva Xayitxon (2023). Elektron darsliklarni yaratish huquqiy asoslari va dasturiy vositalari tahlili. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318274

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

materiallari (elektron darsliklar) tayyorlash uchun mo‘ljallangan kuchli va ishlatish oson bo‘lgan dasturiy vositadir. Elektron ta'limiy kurslar muharriri bo‘lmish CourseLab WebSoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. WebSoft kompaniyasi – zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy komplekslarni ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Kompaniya axborot texnologiyalari bozorida 1999-yildan ish boshlagan. Hozirda CourseLab dasturining CourseLab 3.1 va CourseLab 2.7 versiyalari keng qo‘llanilmoqda. Rasmiy ravishda CourseLab 2.2 versiyasining relizi taqdim etilgan.Yangi versiyada ushbu qo‘shimchalar qo‘shilgan edi:

- Microsoft PowerPointdan taqdimotlar importi mexanizmi qayta ishlangan;
- Avtofiguralarni tahrirlashdagi yangi imkoniyatlar;
- Rasmlarni siqish mexanizmi qo‘shilgan;
- Dasturni bezatish temalari yaratildi.

CourseLabning asosiy imkoniyatlari:

- WYSIWYG tizimida ko‘rish va natijalarni olish mumkin bo‘lgan ta’lim materiallarini yaratish va tahrir qilish.
- Tuzuvchidan HTML yoki boshqa dasturlash tillarini bilishni talab qilmaydi.
- Obyektiv yondashish har qanday murakkablikdagi ta’lim materiallarini yaratish imkonini beradi.
- Ssenariylardan foydalanish murakkab ko‘p obyektli bog‘liqliklarni yaratishni osonlashtiradi.
- Testlarni avtomatik yaratish mexanizmiga ega.
- Ochiq obyektiv interfeys obyekt va shablonlar kutubxonasi va foydalanuvchi yaratgan kutubxonalarni osonlikcha kengaytirish imkonini beradi.
- Obyektlar animatsiyasi mexanizmiga ega.
- Ta’lim kurslariga har qanday Rich-medianing har qanday turini — Macromedia Flash, Shockwave, Java va har qanday formatdagi videoformatdagi fayllarni joylashtirish imkonini beradi.
- Musiqiy ketma-ketlik joylashtirish va sinxronlashning oson mexanizmlari.
- Microsoft PowerPoint formatidagi taqdimotlarni o‘quv materialiga joylashtirish imkoniyati.
- Har xil dasturiy ta’minotlarning simulyasiyalarini yaratish imkonini beruvchi ekranni suratga olish mexanizmiga ega.
- Amallarni izohlashning oson tiliga ega.
- Malakali foydalanuvchiga dastur fayllarining xususiyatlariga to‘g‘ridan - to‘g‘ri JavaScriptga kirish imkonini beradi.
- Elektron ta’lim kurslarini ko‘rish uchun Javaning bo‘lishi talab qilinmaydi.
- CourseLab yordamida yaratilgan ta’lim materiallari ishlatilish turiga qarab, elektron ta’limning quyidagi: AICC (http://www.aicc.org), SCORM 1.2 (http://www.adlnet.org) standartlariga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.https://videouroki.net/razrabotki/courselab-dasturi-yordamida-elektron-darslik-yaratish-asoslarini-o-rganish.html

2.http://kompy.info/amaliy-mashgulot-1-mavzu-talimiy-e-kontent-resurslarini-yarati.html?page=3

3. https://beproclub.com.pl/elektron-darslik-yaratish/

4. Xolmaxamatovich, I. X. (2023). AXBOROT VA KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR BILAN BIRGALIKDA TA’LIM SIFATINI YAXSHILASH VA INNOVATSION G‘OYALARNI AMALDA QO‘LLASH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(2), 270-272.

5. Erkin, K., & Khusan, I. (2022). Optimization of the development and location of agricultural clusters of regions. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 3, 9-13.

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
IB&KT
FAKULTETI
2022